

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.13952605>

TOLERANTLIK – TAFAKKURI KO‘P QIRRALI JARAYON

Aytbaeva Gulchexra Yermekbaevna

Guliston davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tolerantlik tushunchasining turkiy tillardagi ma’nosi va bu haqdagi turli fikrlar hamda mustaqillik yillarida bu tushunchaning ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilishi, yoshlar tafakkurida bag‘rikenglik tafakkurini shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlarga keng e’tibor berila boshlaganligi, shu bilan birga uning ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tushuncha sifatida mafkuraviy jarayonlarga yangidan kirib kelishi, shuningdek tolerantlik tafakkuri ko‘p qirrali jarayon ekanligi haqida fikrlar yuritiladi.

Kalir so‘zlar: *yoshlar tafakkuri, tolerantlik, tolerantlik tafakkuri, mafkuraviy jarayon, to‘zimplilik, totuvlik, chidamlilik, birdamlilik, milliy va ma’naviy qadriyatlar.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается значение понятия толерантность в тюркских языках и различные мнения о нем, а также научно-теоретическое изучение этого понятия в годы независимости, широкое внимание стали уделяться научным исследованиям формирования толерантного мышления в молодежной мысли, в качестве философского понятия рассматривается новое проникновение идеологические процессы, а также мысль о том, что толерантное мышление-многогранный процесс.

Ключевые слова: *молодежное мышление, толерантность, толерантное мышление, создательный процесс, добрососедские отношения, системность, гармония, устойчивость, солидарность, национальные и духовные ценности.*

ANNOTATION

This article examines the meaning of the concept of tolerance in the Turkic languages and various opinions about it, as well as the scientific and theoretical study of this concept in the years of independence, wide attention was paid to scientific research on the formation of tolerant thinking in youth thought, a new penetration of ideological processes is considered as a philosophical concept, as well as the idea that tolerant thinking- a multifaceted process.

Key words: *youth thinking, tolerance, tolerant thinking, creative process, good neighborly relations, consistency, harmony, stability, solidarity, national and spiritual values.*

Hozirgi payitlarda internetlarda, ya'ni ijtimoiy tarmoqlarda o'zgacharoq fikrlarga nisbatan betoqatlik oshib, kishilarni yoppasiga radikal, g'arbparastlikda ayblash ko'payib borayotganini payqash mumkin. O'zining fikriga qo'shilmagan ikkinchi tomonga turli tamg'alarni yopishtirib, haqorat qilishgacha o'tadigan ayrim tarmoq foydalanuvchilarining o'zlariga nisbatan bosim bo'lganida bag'rikenglik haqida yozishlari esa aslida tolerantlik tushunchasi qanchalar muhim ekanini ko'rsatadi. Biroq u faqat do'ppi tor kelganda qo'llaniladigan tushuncha emas. Tolerantlik o'zidan boshqalarning shaxsiy xususiyat va qarashlariga nisbatan sabrli va bag'rikeng bo'lishni nazarda tutadi. Uning millati yo dini yo'q va har bir davlat hamda fuqaroning muhim xususiyatlaridan sanaladi.

Tolerantlik o'zgacha dunyoqarash, turmush tarzi, xulq-atvor va urf-odatlariga nisbatan bag'rikenglik tushunchasini bildiradi. U befarqlik yoki boshqacha qarashlarni qabul qilish kerakligini emas, balki boshqalarning shaxsiy e'tiqodi va qadriyatlariga ko'ra yashashiga toqatli bo'lishni anglatadi. Bu xususiyat dunyodagi turli xalqlar, millatlar va dinlarni hurmat qilish uchun ham muhim sanaladi. Shu bilan birga, tolerantlik insonning turli nuqtai-nazarlarga ochiqligini va o'ziga ishonchi yuqoriligini bildiradi.

“Tolerantlik” deb nomlangan atama xalqaro termin so'z hisoblangani bilan, uning mazmun-mohiyati, o'zimizning oddiy to'zumlilik so'zining muqobili hisolanadi. Bu odatiy turmushdagi qo'shnilarning qo'shnilarga degan to'zumliligidan boshlab, keng ko'lamdagi madaniyatlar, millatlar va e'latlar orasidagi o'zaro to'zumlilikni, totuvlikni anglatadi. “Tolerantlik” atamasi lotin tilidan olingan bo'lib, qozoqcha – chidamlilik, o'zga (boshqa) qarashlarga, xatti-harakatlarga, turli xarakterlarga, odatlarga to'zumlilik va tan olish ma'nosida qo'llaniladi. Barcha insoniyatning millatiga, nasliga, sig'inadigan dinlariga qaramasdan, to'zumlilik, tan olish, tushunish va ularni o'zinkidek qabul qilish xususiyatlarini bir so'z bilan tolerantlik (bag'rikenglik) deyish mumkin². Bu bilan bag'rikenglik insonning ichki ruhiy holati ekanligi tasdiqlanadi. Vaholanki, ongi, haqiqatgo'yiligi, ko'tarinki kayfiyati, ishga munosabati, salomatlik darajasi, qiziqishi, ishonchi, xavfsizligi, qo'rquv hissi, ochko'zligi, javobgarlikni o'z

zimmasiga olishi, ishq-muhabbatining kuchliligi, insonlarga haqiqatan ochiqdan ochiq gapira olishi, yetakchi bo'la olishi, tabiatan o'z xususiyatlarini muvofiqlashtira olishi, muloqot va munosabatga yengil kirisha olishi, ruhiy tetikligi kabilar tushuniladi.

Mustaqillik yillarida tolerantlik tushunchasi mazmunini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish, yoshlar tafakkurida tolerantlik tafakkurini shakllantirishga doir ilmiy tadqiqotlarga keng e'tibor berila boshlandi. Aynan mustaqillik yillarida tolerantlikning falsafiy-ma'naviy qirralarini tadqiq etish borasida ma'lum yutuqlarga erishildi. Chunki, Sobiq Ittifoq sharoitida diniy e'tiqodni inkor etish mafkurasi hukmronligi bois tolerantlik tushunchasi yot g'oyalar tarkibidan o'rin olgan bo'lib, mustaqillik ana shu xato holatning to'g'rilanishiga, uning ilmiy idrok etish jarayoniga qaytishiga imkon yaratdi. Tolerantlik ijtimoiy-siyosiy va falsafiy tushuncha sifatida mafkuraviy jarayonlarga yangidan kirib keldi. Tolerantlik tafakkuri ko'p qirrali jarayon bo'lib, uning turli yo'nalishlari asosida ilmiy izlanishlar va tadqiqotlar olib borish faoliyati boshlandi¹.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida amalga oshirayotgan siyosati natijasida yaratilayotgan o'quv dasturlari va darsliklar o'quvchilarda o'zaro tushunuvchanlikni mustahkamlashga xizmat qilib, birdamlik, etnik, ijtimoiy, madaniy hamda diniy aloqalarni yanada yaqinlashtirishi kerak. Shu bilan bir qatorda, tolerantlik tuyg'usi o'quvchi yoshlarda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini tanqidiy anglash, barcha xalqlar, elatlar va millatlarning milliy, ma'naviy qadriyatlarini hurmat qilishga o'rgatishi lozim.

Ta'kidlash lozimki, tolerantlik – bu chidamlilik yoki matonat degani emas. Chidamlilik – bu og'riq yoki zo'ravonlik ta'siri ostida paydo bo'ladigan hissiyot va harakatni ifodalasa, matonat – shaxsiy yoki jamoaviy xususiyat hisoblanib, dunyoni yaxlit, serqirra hodisa sifatida idrok etishni anglatadi. O'quvchilarda tolerantlik tushunchasini shakllantirishga yo'nal-tirilgan pedagogik jarayon quyidagi tamoyil asosida tashkil etilishi lozim. Har bir o'quvchining nuqtai nazari, boshqalarnikiga yaqin yoki ulardan farqli bo'lib, o'zida boshqa muqobil fikrni mujassamlashtirmaydi.

¹ Usmonova V. Tolerantlik sharq mutafakkirlari talqinida. Kurs ishi. – Buxoro, 2012.

O'quvchilardagi bunday holat mavjud pedagogik vaziyat yoki taqdim etilayotgan bilimlarga bog'liq bo'lib qolmay, muayyan jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy voqelik mahsuli hamdir. Umuman olganda, tolerantlik tushunchalari va ularni o'quvchilarda shakllantirish muammosi ijtimoiy hayotda shaxslar, dinlar, millatlararo farqlar, qarama-qarshilik va mojarolarning mavjudligi bilan chambarchas bog'liq. Tolerantlik tuyg'usi mojarolarni bartaraf etishga yo'naltirilgan sermahsul fazilat hisoblanib, har bir jamiyatda yaqqol mavjud bo'lgan tengsizlik va bahs-munozaralarni zo'ravonlik asosida namoyon bo'lishiga yo'l qo'ymaydigan tuyg'udir.

Shunday qilib, tolerantlik tushunchasi ko'pgina manbalarda chidamlilik bilan tenglashtirilsa-da, nisbatan yorqin va faol mazmunga ega. Ya'ni, tolerantlik – bu xalqlar, millatlar, ijtimoiy guruhlar, shuningdek, turli madaniy, milliy, diniy va ijtimoiy muhitda yashaydigan kishilar o'rtasida ijobiy hamkorlikni ta'minlashga xizmat qiladigan faol ma'naviy qarashlar va chidamlilikka bo'lgan ruhiy tayyorgarlikdir¹.

Tolerantlik tuyg'usi hissiy, aqliy rivojlanish, mehnat ko'nikmalarini egallashdan iborat bo'lib, o'z aqidalari va ongini o'zgartirish orqali shakllanadigan ruhiy holatdir. Tolerantlikni ifodalovchi muhim vositalardan biri o'zaro dialog, ya'ni muloqotdir. Bunday muloqot asosan ikki kishi, ya'ni o'qituvchi va o'quvchi orasida amalga oshiriladi. Tolerantlik tarbiyasi o'quvchilarni ijtimoiy hayotda chidamlilik, bardosh, o'zaro muloqot, toqatli bo'lish kabilarga o'rgatadi.

Butun jahonda tolerantlik turli xalqlarni birlashtirib, bir millatni yana-da jipslashtirarkan, ayniqsa, biz, bir-birimizning fikrlarimiz va dunyoqarashimizga toqatli bo'lolishimiz, hurmat ko'rsatishimiz butun jamiyat uchun faqat foyda keltiradi. Yer yuzida milliardlab aholi bo'lsa, ularni faqat geografik chiziqlargina ajratib turadi. Boshqalar biz ishongan narsaga ishonmasligi, biz kabi fikrlamasligi va hatto, bizdek ko'rinish va xususiyatlarga ega bo'lmasligi ham mumkin, biroq ular ham biz kabi inson. Mana shuning o'zi insoniy munosabat uchun yetarli bo'lishi kerak.

¹ Akramova G.R. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. Dissertatsiya. – Toshkent, 2007.

Yuqoridagi tahlildan ko‘rinib turibdiki, tolerantlik dastlabki davrda tenglik, boshqalarga chiday olish, mexr-shafqat ma‘nolarida tushunilgan, bag‘rikenglik tushunchasi esa bu ma‘nolarni o‘ziga singdira oladi. Tolerantlik tushunchasi ko‘p jihatlarga ega bo‘lganligi uchun bu tushunchalarni o‘z ichiga oladi va ulardangina iborat emas, ya‘ni begona qarashlarni o‘z qarashlari kabi hurmat qila olish, muhabbat bilan qarash kabi g‘oyalarni ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ravshanov F. Tolerantlik: tarix va taraqqiyot. Ilmiy tahliliy axborot, 1-son 2018-yil. Vol. 2018. Iss. 1, Article 17. 80-83-betlar;
2. Akramova G.R. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tolerantlik tushunchalarini shakllantirishning didaktik asoslari. – Toshkent, 2007;
3. Madaniyatshunoslik: oliy ta‘lim va kolledj talabalari uchun darslik. Almati: Raritet, 2005. – 416 bet. <http://sabaq.kz/7485/>;
4. Большая энциклопедия. – М.: Мультимедия-издания «Кирилл и Мефодия», 2008.
5. G.E.Qo‘shoqova. Yoshlarda tolerantlik tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslari. Monografiya. – Toshkent, 2015, – B.130; Usmonova V. Tolerantlik sharq mutafakkirlari talqinida. – Buxoro, 2012;
6. Yegemen.kz: <https://egemen.kz/article/37352-toleranttylyq-%E2%80%93-beybitshilik-kepili>;